

INVESTITSIYA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA MOLİYALASHTIRISH MANBALARNI AHAMIYATI**G'aniyev Ibragim Mamadiyevich***Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Samarqand filiali,
Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, dotsent***Niyozov Sherzod Baxtiyor og'li***Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti magistranti*

Phone number: +998997771401

e-mail: werzod_1401@mail.ru

Annotation

This article describes the methodological framework for organizing and financing investments. The economic content of investment and the process in it, investment policy in the development of investment activities, the importance of foreign investment, the investment climate and sources of financing in improving investment activities, the ways of their proper use are discussed.

Key words

Investment, finance, savings, resource, capital, dynamic movement, enterprise, material, economy, collection, profit, interest, Gross cost, Technology, economy, social, capital, statistics, project.

Annotatsiya

Ushbu maqolada investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirishning uslubiy asoslari yoritilgan. Investitsiya va undagi jarayonning iqtisodiy mazmuni, investitsiya faoliyatini rivojlantirishda investitsiya siyosati, xorijiy investitsiyalar, investitsiya muhiti va investitsiya faoliyatini takomillashtirishda moliyalashtirish manbalarni ahamiyati, undan to'g'ri foydalanish usullari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar

Investitsiya, moliya, jamg'arma, resurs, kapital, dinamik harakat, korxona, moddiy, xo'jalik, to'plam, foyda, foiz, Yalpi xarajat, Texnologiya, iqtisodiyot, ijtimoiy, mablag', statistika, loyiha.

Bozor islohotlarini chuqurlashtirish, xususiyl sektorini rivojlantirish va iqtisodiyot tarkibini modernizatsiyalashga qaratilgan hukumat siyosati, shuningdek, 2008 yil Investitsiya dasturi, iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash dasturlarini amalga oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar joriy yilning birinchi choragida investitsiyalar hajmining 41 foizga o'sishini ta'minladi. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi yanvar-mart davomida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,6 punktga ortib, 1622,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish jarayoni nodavlat sektorga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushining 18,6 punktga o'sishiga olib keldi va iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilgan jami investitsiyalarning 76,5 foizni tashkil qildi. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotning liberallashtirish investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatdi. Investitsiyalarning umumiy hajmida markazlashgan mablag'larning ulushi 2007 yil 34,2 foizdan joriy yilning birinchi choragida 22,6 foizgacha qisqardi. Davlat byudjeti hisobidan moliyalashtirilayotgan mablag'larning ulushi 8,5 punktga, hukumat kafolati ostida olingan xorijiy kreditlar ulushi esa 0,6 punktga kamayib, hisobot davrida o'zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmiga nisbatan mos ravishda 8,9 % va 6,3 %ni tashkil etdi. Joriy yilning birinchi choragi davomida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning Asosiy moliyalashtirish manbasi bo'lib korxonalarining o'z mablag'lari xizmat qildi. Ularning umumiy investitsiyalardagi ulushi 10,8 punktga ortib, 54,3 foizni tashkil etdi. ¹

Investitsiyalashda aylanma kapitalga ustivorlik berilishini faqat kapitalning tarkibiy tuzilishi bilan tushuntirish ozlik qiladi. Gap shundaki, dastlabki kapital jamg'arish davrida pulni tez to'plash uchun uni kapital oboroti tez bo'ladigan soxalarga joylashtirilishi yuz beradi, chunki bu bilan yuqori foyda normasi yuzaga keladi. Foyda normasi yuqori joyda esa, uni kapitallashtirish imkoni katta bo'ladi. Bu omil ham xususiyl sektorda pulni oborot kapitaliga aylantirish uchun rag'bat yaratadi. Bozor talablariga binoan tejamli xo'jalik yurita bilmaslik tannarxni ortishiga olib keladi, bu narx o'zgarishlar sharoitida, ham zararga olib keladi. Ammo hozirgi o'tish davrida xo'jalikdan tashqarida bo'lgan omillar ta'siri g'oyat kuchli. Bu balanslashmagan inflyatsiya sharoitida davlat xarid narxining mavjudligidir. Bu narx asosiy

maxsulotlar (paxta, g'alla, pilla)ga taalluqli bo'lib, uning darajasi resurslar narxiga mutanosib ravishda o'zgarmaydi. Natijada bu narxlar «qaychisi» paydo bo'lib, bu shirkat xo'jaliklarini rentabel ishlashiga yo'l bermaydi. Davlat narxlari amalda monopsoniya narxlari, ya'ni xaridorning bir yoqlama manfaatidan kelib chiqqan xolda belgilanadigan narx bo'ladi. U bozorni monopollashganligini bildiradi. SHirkatlar tabiatan tarqoq va erkin xo'jalik lekin ular erkin bozorga ishlay olmaydi. Bu ziddiyat ularni moliyaviy tanglikka maxkum etadi. Bozorda davlat monopoliyasining saklanishi monopsoniya yo'q sharoitda xam sezilib turadi. Buni xususan oziq-ovqatdan iborat shirkat, fermer va dexkon xo'jalik maxsuloti narxini sanoat narxiga nisbatan sekin o'sishida, narxining paritetida ko'rish mumkin. Dehqonlar maxsulotining ayirboshlanish ekvivalentining pasayishi tufayli ular foydani kam ko'radi, yoki uni umuman olmaydi. Bu albatta, investitsiyalarni o'z mablag'i xisobidan ta'minlash imkonini cheklab qo'yadi.²

Investitsiyalashning bosh bosqichlari quyidagilar bo'ladi: resurslarni kapital qo'yilmalarga aylantirish (resurslarning kapitallashuvi), ya'ni bunda investitsiyalar investitsiya faoliyatining aniq ob'ektlariga transformatsiyasi jarayoni yuz beradi; qo'yilgan mablag'larning kapital qiymati o'sishiga aylanishi (ekspluatatsiyaga berilgan ob'ektlar va ishlab chiqarish quvvatlari shaklida); kapital qiymatining daromad (foyda) shaklida o'sishi, ya'ni investitsiyalashning oxirgi (so'nggi) maqsadi amalga oshiriladi. Shunday qilib, investitsiyalarning bosh va oxirgi nuqtalari tutashadi. Bunda yana ketma-ketlik, bir-biri bilan yangi aloqa shakllanib: daromad (foyda) – resurslar – oxirgi natija, ya'ni jamg'arish jarayoni takrorlanadi. Demak, investitsiya faoliyatining mohiyatini tushunishda jamg'arish (resurslar), investitsiya qo'yish va ularning kapitallashuvi jarayonlarini ham birga olib qarash lozim. Investitsiya faoliyati investitsiyalash va investitsiyalarni, mulkni ko'paytirishning asosi hisoblanadi, chunki aynan ana shu faoliyatda investitsiya bir ko'rinishdan ikkinchi ko'rinishga o'tadi, ya'ni jamg'armalar (resurslar), qo'yilmalar (xarajatlar), kapital mulk (tayyor mahsulot), iqtisodiy yoki ijtimoiy samara (daromad, foyda) va kapitalni o'stirish (jamg'arma) shaklini oladi.³

Yuqrida keltirilgan ilmiy tahlil va ma'lumotlardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, investitsiya faoliyatida investitsiyalarning ketma-ketligi va ularning o'zgaruvchanligi, ya'ni resurslar (qiymatliklar) – qo'yish (xarajatlar) va investitsiya natijasida samara (foyda, daromad) olish yotishi kerak. Agar samara olinmasa investitsiyalashga rag'bat ham bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Фаол тадбиркорлик, инновацион ғоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили”да амалга оширишга оид давлат Дастури тўғрисида”ги 2018 йил 22 январдаги ПФ-5308-сонли Фармони.Ортиқов А. Саноат иқтисодиёти. Дарслик. 2-нашри, қайтадан ишлаб чиқарилган ва тўлдирилган. - Т.: Иқтисодиёт, 2014.

2. Мадалиев А.А. “Иқтисодиётни бошқаришда инсон омилини фаоллаштиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмидан фойдаланишни такомиллаштириш”: иқт.фан. фалсафа доктори (PhD) дисс. автореферат. -Т., 2017.

3. Тухтабаев Ж.Ш. “Саноат ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат самарадорлигини миқдорий ёндашувлар асосида баҳолаш”. “Биржа-Эксперт” журнал, 2015.

4. Уроқов Ж.Р. “Хизмат кўрсатиш корхоналари фаолияти самарадорлигини оширишнинг ташкилий-иқтисодий механизмини такомиллаштириш” (Самарқанд вилояти мисолида): иқт.фан.ном.дисс. Автореферат. –Самарқанд., 2012.

5. Тухтабаев Ж.Ш. “Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат самарадорлигини ошириш мезонлари ва кўрсаткичлари таснифи”. “Биржа-эксперт” журнал, 2016. № 5 (100).

¹ <https://mineconomy.uz/uz/info/293>

² <https://genderi.org/investitsion-faoliyatni-moliyalashtirish-manbalari.html>

³ <https://hozir.org/moliya-va-kredit.html?page=10>